

Dargoh va devonlar faoliyatining tarixshunoslik masalalari

Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti

Tarix fakulteti 4-kurs talabasi

Ahmadov Azamat Bahodir o'gli

+998 93 602-51-16.

Ilmiy rahbar t.f.n. dotsent **N.O'.Hidirova**

+998 90 988-02-34

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbek davlatchiligi tarixida muhim o'rin tutgan dargoh va devonlar faoliyatining tarixshunoslik masalasi tahlil etilib, ayrim fikr mulohazalar ilgari surilgan. Shuningdek, dargoh va devonning davlat boshqaruv tizimidagi vazifalari, ishlash tartibi, huquqiy asoslari haqida ma'lumotlar beriladi.

Kalit so'zlar: davlat, boshqaruv shakli, dargoh, devon, tarixshunoslik, manbalar.

Аннотация: В данной статье анализируется историография деятельности даргоха и девонов, занимавших важное место в истории узбекской государственности, и выдвигаются некоторые соображения. Также дается информация о функциях дарго и девона в системе государственного управления, порядке их функционирования, правовых основах.

Ключевые слова: государство, форма правления, Даро, Девон, историография, источники.

Abstract: This article analyzes the historiography of the activities of dargokh and devons, who occupied an important place in the history of Uzbek statehood, and puts forward some considerations. Information is also provided on the functions of Dargokh and Devon in the system of public administration, the order of their functioning, and the legal foundations.

Keywords: state, form of government, dargokh, devon, historiography, sources.

O'zbek davlatchiligi tarixida muhim o'rin tutgan dargoh va devonlar masalasi hozirgi kungacha tizimli tadqiq qilinmagan mavzulardan biridir. Xususan, ular qatoriga O'ziston hududida qadimdan mavjud bo'lgan davlatlar ularning ma'muriy tuzulishi, boshqaruv shakli, unvon va mansablarning ishlash tizi, ularni funksiyalarini o'zgarishi kabi masalalarni kiritish mumkin. Dargoh va devonlarga oid ayrim ma'lumotlar Sh.Vohidov, R.Xoliqova, O'.Abdullayev, B.Eshov, N.Hidirova kabi tadqiqotchilarning ishlarida keltirilgan¹.

Abdullayev O'. "O'rta Osiyoda qadimgi boshqaruv va ilk davlatchilik tarixshunosligi" deb nomlangan kitobida O'zbekiston hududida tashkil topgan eng qadimgi davlatlar Xorazm va Baqriyaning boshqaruv shakli haqida muhim ma'lumotlar beradi. Bu kitobdagi ma'lumotlar "Avesto", Ahamoniylar davri qadimgi fors manbalari va yunon tarixchilarining asarlarini o'rganish natijasida to'plangan. "Avesto"da, "urug' oqsoqoli-urug' egasi", "vispati" deb atalgan. U qishloq oqsoqoli sifatida iqtisodiy masalalardan tashqari sud, huquq va diniy muommolar bilan ham shug'ullangan. Ushbu tadqiqotlar natijasida ijtimoiy tuzilmalarning tashkil topishi, qadimgi boshqaruv tizimi, hukmdorlarning unvonlari o'rganiladi va aholining

¹ Vohidov Sh. , Xoliqova R. Markaziy Osiyodagi davlat boshqaruvi tarixidan (XIX-XX asr boshlari). T.: "Yangi asr avlodlari".2006; Abdullayev O'. O'rta Osiyoda qadimgi boshqaruv va ilk davlatchilik tarixshunosligi.-T.: „Akademiya“.2009; Eshov B. O'zbekiston davlatchiligi va boshqaruvi tarixi. -T.-:2012; Хидирова Н. Даргох ва девонларнинг иш юритиш тартиби:назарий билимлар ва амалиёт. Ўзбек давлатчилиги тизимида даргох ва девонлар фаолияти тарихидан. Т. "Akademnashr". Маъсул муҳаррирлар: Н.Хидирова, Х.Мамадалиев. Б. 296-332.

hududiy joylashishi, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar, siyosiy tarix kabi masalalar ko'rib chiqildi².

Eshov B. "O'zbekiston davlatchiligi va boshqaruvi tarixi" asari O'zbek davlatchiligi tarixi bilan birga boshqaruv tizimi haqidagi ma'lumotlarni o'z ichida oladi. Boshqaruv shaklidagi devonxonalarini Ahamoniylar davri bilan bog'laydi. Tarixdan ma'lumki, Ahamoniylar tomonidan O'rta Osiyo viloyatlarining bosib olinishi natijasida barcha boshqaruv shakllari ularning qo'lga o'tdi va mavjud bo'lgan devonlar bir qancha masalalarni hal qila oldi. Ahamoniylar davlatining bosh ma'muriy markazi Suza shahri edi. Bu yerda shoh devonxonasi mavjud bo'lib, unda barcha davlat hujjatlari-shahanshoh farmonlari, nomalar, farmoyishlar, ijtimoiy-iqtisodiy hayotga doir hujjatlar saqlangan. Shoh devonxonasi boshlig'i dapirpant (mirzo boshi) deb atalgan. Uning qo'l ostidagi devonxonada bosh xazinachilar, hisobchilar, huquqshunoslar, mirzalar kabi lavozim egalari xizmat qilganlar³. Bu davrda garchi devonxona Suza shahrida faoliyat yuritgan bo'lsa ham davlatning barcha bosib olingan hududlari shoh va uning devonxonasidagi qonun-qoidalarga bo'ysungan. O'rta Osiyoda mavjud bo'lgan qadimgi davlatlar ham shu tizim asosida boshqarilgan. Ahamoniylar davlati hududining benihoya kattaligi vaqt o'tib boshqaruvni qiyinlashuviga sabab bo'lgan. Doro I davrida ko'p islohotlar amalga oshirilgan. Uning davrida bosib olingan hududlar satrapliklarga bo'lingan. Bu yerlarda ham boshqaruv shaklida devonxona muhim rol o'ynagan. Satrapning saroyi va boshqaruv apparati qisqartirilgan ko'rinishda shahanshoh saroyi va markaziy boshqaruv apparatini takrorlagan. Satrapga ikkita yordamchi, devonxona va mirzalar birlashtirilgan. Satrap o'ziga berilgan hududning huquqiy masalalariga ham javobgar bo'lgan. Satrapning faoliyati doimiy ravishda markazdan nazorat qilib turilgan⁴. Keyingi davrlarda devonxona faoliyati to'g'risida ma'lumotlar deyarli uchramaydi. Devon va dargohlarning asosiy tarzda faoliyat olib borilgan davri bu –Somoniylar davlati davridan boshlangan. IX asrning ikkinchi yarmidan Movarounnahr va Xuroson hududlarida vujudga kelgan bu davlat o'z davrining eng yirik davlatlaridan biri bo'lgan. Hokimiyatga kelgan hukmdorlar markazlashgan davlat tuzish uchun eng birinchi bo'lib davlat boshqaruv tizimini isloh qilishni boshlagan. Ismoil Somoniy davrida davlatni boshqarish tizimida yangicha tizim vujudga kelgan. Mamlakatning mustahkamlash yo'lida Ismoil Somoniy bir qancha islohotlar o'tkazgan. Ulardan biri davlatni boshqarish ma'muriyatini joriy qilish bo'ldi. Davlat majmuyi dargoh (amir saroyi) va devonga (vazirliklar,davlat idorasi) bo'lingan. Dargoh hukmdor saroyida faoliyat yuritgan. Somoniylar davlati va uning boshqaruv shakli haqida Narshaxiy o'zining "Buxoro tarixi" asarida muhim ma'lumotlarni yozib qoldirgan. Asarida keltirilishicha Somoniylar davlatida 10 ta devon faoliyat yuritgan. Bu ma'lumotlar asosida devonlar haqida to'liq ma'lumotlar olish mumkin. "Somoniylar davrida 10 ta devon (vazirliklar) faoliyat ko'rsatgan bo'lib, ular mamlakatning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va mafkuraviy hayotini boshqargan. Devoni vazir, devoni amid, devoni mustavfiy, devoni sohibshurot, devoni sohibbarida, devoni muhtasib, devoni mushrif, devoni qozi, devoni ziyo, devoni vaqfdan iborat. Bu devonlar ijroiya –boshqaruv tizimining asosi hisoblanardi. Mamlakat poytaxti hisoblangan Buxoro shahrida har bir devon(vazirlik)uchun alohida binolar barpo etilgan. Bu devonlarning joylarda mahalliy bo'limlari ham bo'lib, ular viloyatlarda mahalliy ijro hokimiyatini amalga oshirganlar"⁵.

² 1.Abdullayev O'. , O'rta Osiyoda qadimgi boshqaruv va ilk davlatchilik tarixshunosligi".-T.: „Akademiya”.2009. 118-bet.

³ .Eshov B. „O'zbekiston davlatchiligi va boshqaruvi tarixi”T.:2012. 66-bet.

⁴ . Eshov B. „O'zbekiston davlatchiligi va boshqaruvi tarixi”T.:2012 .67-bet

⁵Sagdullayev A. ,Mavlonov O'. O'zbekistonda davlat boshqaruvi tarixi.(Qadimgi davrlardan XIX asrning o'rtalariga qadar.)T. "Akademiya".2006. 74-75-bet.

Davlatchilik tariximizda X asrning ikkinchi yarmidan boshlab G'aznaviyalar davlati vujudga keldi. Mavzu tarixshunosligi o'rganilar ekan, dargoh va devon faoliyati G'aznaviyalar davlatida ham faoliyat yuritganiga guvoh bo'lamiz. Davlat hukmdori Amir nomi bilan atalgan. Devonlar quyidagil tartibda bo'lingan. Vazir - bosh vazir devoni, harbiy ishlar devoni, rasmiy tadbirlar ba hujjatlarni rasmiylashtirish devoni, hisob-kitob va moliya devoni, pochta- xabarchi devoni. Bu devonlar o'z vazifalari doirasida ish olib borgan va davlat hukmdoriga bo'ysungan.

XI asr 40-yillaridan boshlanib Saljuqiylar davlatida yuksalish davri kuzatildi. Davlatning boshqaruv tizimi dargoh va devonga bo'lingan. Davlat hukmdori Sulton ul-a'zam nomi bilan ulug'langan. Dargoh eng asosiy vazifalarni hal qilgan. Devonlar faoliyati sulolaviy va rasmiy devonlarga bo'lingan. Keyinchalik mavjud bo'lgan Xorazmshohlar davlati boshqaruv tizimi ham shu tarzda bo'lgan. Xorazmshohlarning davlat tizimi Saljuqiylardan deyarli farq qilmagan. Dargohda hojib, ulug' hojib Xorazmshohlar davrida ham o'z ahamiyatini saqlab qolgan. Hojiblarga maxsus mu'zokaralar olib borish, hatto vazirlar faoliyatini tekshirish kabi muhim vazifalar topshirilgan. Hojiblarning viloyat hukmdori bo'lganliklari ham manbalardan ma'lum⁶. Bu davlat boshqaruv ishlarida Hojib unvoni bilan ish olib borgan lavozim egasini ham uchratamiz.

Xorazm shohlar davlatida markaziy davlat idorasining rahbari (al majlisal oliy al-faxriyattoshi) eng yuqori martabali mansabdor bo'lib, u vazir deb atalar edi. Vazir davlat rahbarining birinchi maslahatchisi bo'lib, u faqat shohning o'zigagina bo'ysunar edi. Vazir shoh nomidan rasmiy marosimlar, davlatlararo aloqalar, mustamlakalar bilan olib boriladigan muzokaralarda shoh nomidan qatnashar, davlat rahbari va fuqarolar o'rtasida vositachilik qilar, barcha davlat amaldorlari, jumladan beklar va harbiy boshliqlar ham bo'ysunar edi⁷.

O'zbek davlatchiligi tarixida dargoh va devonlar tarixshunosligi o'rganilar ekan Amir Temur davrida dargoh va devonlarning asosiy davlat idorasi bo'lganligini ko'ramiz. Markazlashgan davlat parbo etgan Amir Temur o'z davlatini boshqarish uchun dargoh va devonlar ham tuzdi. Amir Temur davrida boshqaruv ikki idora: dargoh va devonlarga (Vazirliklar) ga bo'lingan. Dargoh-eng oliy davlat idorasi. Uning boshlig'i tabiiy ravishda davlatning oliy hukmdori edi⁸. Amir Temur davrida dargoh faoliyatini boshqarish- Oliy devon zimmasida bo'lgan. Manbalar va tadqiqotchi mualliflarning shohidlik berishicha Amir Temur yigirma yettita davlatni o'z ichiga olgan saltanatni yetti vazir yordamida boshqargan. Ulardan to'rt vazir oliy dargoh ishlarini yuritsa, uchta vazir viloyatlar ishlari bilan mashg'ul bo'lgan. Vazirlar devonbegiga bo'ysunganlar. Devonbegi bosh ijroiya tashkiloti –Oliy devonga boshchilik qilgan⁹. Bu kabi davlat boshqarish tizimi keyingi Temuriylar davrida ham saqlanib qolgan.

Xonliklar davri dargoh va devonlar faoliyati tarixshunosligi bilan Sh.Vohidov va R.Xoliqovalar shugullangan. Xonliklarda eng oliy hukmdor amir yoki xon unvoni bilan atalgan. Dargoh tepasida hukmdorning o'zi turgan. Devonga rahbar shaxs Buxoroda – Devonbegi edi. Xiva xonligida Buxoro amirligi va Qo'qon xonligidan farqli o'laroq saroyda, xon huzurida Kengash faoliyat yuritgan. Bu Kengashning vakolatlari chegaralangan bo'lib, maslahat beruvchi organga o'xshar, uning a'zolari eng yuqori mansab va unvondagi amaldorlardan iborat

⁶Matyoqubov E. Xorazmshohlar- Anushteginlar davlatining ma'muriy va saroy boshqaruv tizimi, unvon va mansablar. Urganch-2015. 62-bet.

⁷.Buniyodov Z. Anushtagin Xorazmshohlar davlati (1097-1231). T.: „G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. 1998. 124-bet.

⁸.Azamat Ziyov. „O'zbek davlatchiligi tarixi“. T.: „Sharq“.2001-yil.174-bet..

⁹. O'ljayeva Sh.,„Amir Temur davlat boshqaruvi“. T.:„Akademiya“2017-yil.69-bet.

edi¹⁰. Xonliklarda barcha qarorlar hukmdorlar tomonidan qabul qilingan bo'lsada bu kabi boshqaruv shakllari ham o'z vakolatlaridan kelib chiqib ish olib borardi. "Qo'qon xoni davlat boshqaruvida mutloq hokimiyatga ega bo'lib, taxt merosiy edi. Hukumat qarorgohi xon o'rdasida joylashgan, davlat ahamiyatiga molik barcha masalalar ushbu saroyda hal qilingan. Markaziy boshqaruv tizimi ham to'raligicha o'rdada mujassamlashib, unda faoliyat yurituvchi barcha amaldorlar xon huzuridagi Oliy kengash tarkibiga kiritilgan. Markaziy boshqaruv oliy hukmdor, keyin maslahat organi bo'lgan kengash, undan so'ng ijroiya vazifalaridagi mas'ul amaldorlardan iborat bo'lgan. Davlat boshqaruvida mansab va lavozimlar muhim o'rin tutgan. Xondan keyingi eng katta lavozim mingboshi, ya'ni bosh vazir bo'lgan. Aynan, mingboshi lavozimidagi shaxs viloyat hokimlari va boshqa mansablarga tayinlashda xonga taklif kiritgan. Harbiy harakatlar paytida esa mingboshi amirul lashkar sifatida qo'shinga rahbarlik qilgan. Shulardan ko'rish mumkinki, mingboshi davlat ishlarida katta vakolatlarga ega bo'lgan"¹¹.

Xulosa qilib aytganda, O'zbek davlatchiligi tarixida muhim o'rin tutgan dargoh va devonlarning faoliyatini o'rganish davlat boshqaruvi, mansab va lavozimlar, ularning vazifalarini o'rganish imkonin beradi. Shuningdek, mavzuning tarixshunosligi bu sohada chuqurroq tadqiqotlar olib borishni ham ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Abdullayev O'. „ O'rta Osiyoda qadimgi boshqaruv va ilk davlatchilik tarixshunosligi”.-T.: „Akademiya”.2009-yil.
2. Azamat Ziyov. „O'zbek davlatchiligi tarixi”. T.: „Sharq”.2001-yil.
- 3.Buniyodov Z. „ Anushtagin Xorazmshohlar davlati (1097-1231). T.: „G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti”. 1998-yil.
- 4.Eshov B. „ O'zbekiston davlatchiligi va boshqaruvi tarixi”. T.:2012-yil.
5. .Kuzikulov I. „Qo'qon xonligi tarixi”„,Namangan nashriyoti”.2014-yil.
- 6.Matyoqubov E. „ Xorazmshohlar- Anushteginlar davlatining ma'muriy va saroy boshqaruv tizimi, unvon va mansablar”. Urganch-2015. (Dissertatsiya)
- 7.Sagdullayev A. „Mavlonov O'. „ O'zbekistonda davlat boshqaruvi tarixi.(Qadimgi davrlardan XIX asrning o'rtalariga qadar.) T.:„Akademiya”.2006-yil.
- 8.Vohidov Sh. „ Xoliqova R. „Markaziy Osiyidagi davlat boshqaruvi tarixidan”(XIX-XX asr boshlari). T.: „ Yangi asr avlodlari”.2006-yil.
- 9.O'ljayeva Sh. „ Amir Temur davlat boshqaruvi”. T.: „ Akademiya”2017-yil.

¹⁰. Vohidov SH.,Xoliqova R. „Markaziy Osiyidagi davlat boshqaruvi tarixidan”(XIX-XX asr boshlari).48-bet.

¹¹ .Kuzikulov I. „Qo 'qon xonligi tarixi”„,Namangan nashriyoti”.2014-yil.23-bet.